

“OG‘ABIY” ROMANI TARJIMASIDA MAQOLLARNING MILLIY KOLORITNI IFODALASHDAGI O‘RNI

Abdullayev Xotamjon Xamroyevich,

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti O‘zbek adabiyoti kafedrasida assistenti

Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi.

E-mail: abdullaevhotamjon0719@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada qoraqalpoq yozuvchisi Kengesboy Karimovning “Og‘abiy” romani va uning o‘zbekcha tarjimasi misolida maqollarning badiiy tarjimadagi o‘rni hamda milliy koloritni ifodalashdagi lingvopoetik xususiyatlari tadqiq etiladi. Maqol va matallarning xalqning tarixiy tajribasi, milliy mentaliteti, ma’naviy qadriyatlari hamda etnomadaniy tafakkurini aks ettiruvchi vosita sifatidagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, turkiy xalqlar uchun mushtarak bo‘lgan maqollar hamda qoraqalpoq xalqining milliy o‘ziga xosligini ifodalovchi maqollarning o‘zbek tilidagi talqini qiyosiy aspektda ko‘rib chiqiladi. Tahlillar natijasida maqollar badiiy tarjimada milliy-estetik ruhni saqlash, asarning obrazlilik darajasini ta’minlash va xalqona tafakkurni kitobxonga yetkazishda muhim lingvopoetik vosita ekanligi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: maqol, matal, frazeologik birlik, badiiy tarjima, milliy kolorit, lingvopoetika, lingvomadaniyat, tarjimashunoslik, muqobillik, etnomadaniy birliklar, qoraqalpoq adabiyoti, o‘zbek adabiyoti, milliy tafakkur, badiiy-estetik ruh.

Аннотация. В данной статье рассматривается роль пословиц в литературном переводе и лингвопоэтические особенности выражения национального колорита на примере романа «Агабы» каракалпакского писателя Кенгесбая Каримова и его узбекского перевода. Подчеркивается важность пословиц и изречений как средства отражения исторического опыта, национального менталитета, духовных ценностей и этнокультурного мышления народа. Также в сравнительном аспекте рассматривается интерпретация пословиц, распространенных среди тюркских народов, и пословиц, выражающих национальную идентичность каракалпакского народа, на узбекском языке. В результате анализа обосновывается, что пословицы являются важным лингвопоэтическим инструментом в литературном переводе для сохранения национально-эстетического духа, обеспечения уровня образности произведения и передачи народного мышления читателю.

Ключевые слова: пословица, идиома, фразеологическая единица, литературный перевод, национальный колорит, лингвопоэтика, лингвокультура, переводоведение, альтернатива, этнокультурные единицы, каракалпакская литература, узбекская литература, национальная мысль, художественно-эстетический дух.

Abstract. This article examines the role of proverbs in literary translation and the linguopoetic features of expressing national color using the novel "Agaby" by the Karakalpak writer Kengesboy Karimov and its Uzbek translation as an example. The importance of proverbs and sayings as a means of reflecting the historical experience, national mentality, spiritual values, and ethnocultural thinking of the people is highlighted. Also, the interpretation of proverbs common to Turkic peoples and proverbs expressing the national identity of the Karakalpak people in the Uzbek language is considered in a comparative aspect. As a result of the analysis, it is substantiated that proverbs are an important linguopoetic tool in literary translation for preserving the national-aesthetic spirit, ensuring the level of imagery of the work, and conveying folk thinking to the reader.

Keywords: proverb, idiom, phraseological unit, literary translation, national color, linguopoetics, linguoculture, translation studies, alternative, ethnocultural units, Karakalpak literature, Uzbek literature, national thought, artistic and aesthetic spirit.

Kirish va dolzarbligi. Badiiy tarjimada milliy koloritni ifodalovchi vositalar orasida maqollar, matallar va frazeologik birliklar alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki

bunday turg'un birikmalar xalqning ko'p asrlik hayotiy tajribasi, milliy dunyoqarashi, urf-odatlari, qadriyatlari va etnomadaniy tafakkurining o'ziga xos qirralarini o'zida mujassamlashtiradi. Ular tilning obrazlilik va ta'sirchanlik imkoniyatlarini namoyon etish bilan birga, muayyan xalqning tarixiy xotirasi, ma'naviy merosi hamda estetik idealini aks ettiruvchi muhim lingvopoetik vosita sifatida ham xizmat qiladi. Shu sababli badiiy asarni bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilish jarayonida maqol, matal va iboralarning mazmuniy, uslubiy hamda milliy-estetik xususiyatlarini imkon qadar to'liq saqlab qolish tarjimon oldida turgan eng mas'uliyatli vazifalardan biri hisoblanadi. Zero, aynan ana shunday birliklar orqali asarning milliy ruhi, muallifning badiiy niyati va xalqona tafakkur ifodasi namoyon bo'ladi. Tarjimashunoslik nazariyasining yirik namoyandalaridan biri G'aybulla Salom ham mazkur masalaga alohida e'tibor qaratib, maqol va iboralarning tarjimadagi o'rni hamda milliy xususiyatlarni saqlash zarurati haqida qimmatli ilmiy mulohazalar bildirgan. Olimning quyidagi fikrlari ushbu masalaning nazariy asoslarini yanada oydinlashtiradi: "Agar mendan: tilda ham mo'jizalar bo'ladimi? – deb so'rasalar, men: agar bo'lsa, tilning "mo'jizasi" undagi maqol, matal va idiomalardir deb javob qilgan bo'lar edim. Gapning qaymog'i, shirini, olam-olam ma'no beradigani, shu bilan birga, lo'ndasi maqol, matallardir".

Metodlar va o'rganilish darajasi. O'zbek va qoraqalpoq xalqlari asrlar davomida yagona tarixiy-madaniy makonda yashab, o'zaro iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy munosabatlar asosida mushtarak qadriyatlar tizimini shakllantirgan qardosh xalqlar hisoblanadi. Ushbu yaqinlik ikki xalqning og'zaki va yozma adabiyotida, folklor an'analari, badiiy tafakkuri hamda adabiy-estetik qarashlarida ham o'z aksini topgan. Shu bois o'zbek va qoraqalpoq adabiy aloqalari masalasi uzoq yillardan buyon adabiyotshunoslik va tarjimashunoslikning muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri sifatida o'rganib kelinmoqda.

Ikki xalq adabiyotlari o'rtasidagi tarixiy-adabiy munosabatlar, adabiy ta'sir va badiiy hamkorlik masalalari qoraqalpoq va o'zbek adabiyotshunoslari tomonidan turli davrlarda tadqiq etilgan. Jumladan, Baxtiyor Qurbanbayev, Karimboy Quramboyev, Fayzulla Salayev, Komil Tashanov, Kamol Mambetov, Ismoil Sag'itov, Najim Davqarayev, Marat Nurmuhammedov, Sirojiddin Axmetov kabi olimlarning ilmiy izlanishlari o'zbek-qoraqalpoq adabiy aloqalarining tarixiy ildizlari, rivojlanish bosqichlari, adabiy ta'sir masalalari hamda badiiy tarjimaning o'rni va ahamiyatini yoritishda muhim ilmiy manba vazifasini o'taydi. Mazkur tadqiqotlarda ikki xalq adabiyotidagi mushtarak motivlar, folklor an'analari, tarixiy-madaniy yaqinlik, adabiy merosning o'zaro ta'siri va tarjima jarayonlari turli aspektlarda tahlil qilingan.

O'zbek tarjimashunosligida ham badiiy tarjima nazariyasi va amaliyotiga oid salmoqli ilmiy maktab shakllangan. Bu borada G'aybulla As-Salom, Jumaniyoz Sharipov, Najmiddin Komilov kabi olimlarning ilmiy ishlari alohida ahamiyatga ega. Ularning tadqiqotlarida badiiy tarjimaning nazariy asoslari, milliy koloritni saqlash, muqobillik

(ekvivalentlik) masalalari, tarjimada uslub va badiiylikni qayta yaratish muammolari keng yoritilgan. Ayniqsa, G'aybulla As-Salomning maqol, matal, frazeologik birliklar hamda milliy-madaniy unsurlar tarjimasi bilan bog'liq ilmiy qarashlari bugungi tarjimashunoslik uchun ham metodologik ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqotda o'zbek va qoraqalpoq adabiy aloqalarining muhim ko'rinishlaridan biri bo'lgan badiiy tarjima, xususan, qoraqalpoq tilidagi maqollarning o'zbek tiliga tarjima qilinishi masalasi Kengesboy Karimovning "Og'abiy" romani va uning o'zbekcha tarjimasi misolida o'rganiladi. Shuningdek, tadqiqot davomida tarixiy-qiyosiy va kontekstual tahlil metodlaridan ham foydalanildi. Bu esa maqollarning asar kompozitsiyasidagi o'rni, qahramonlar nutqini individuallashtirishdagi vazifasi hamda milliy kolorit yaratishdagi ahamiyatini yanada chuqurroq ochib berish imkonini berdi. Natijada o'zbek va qoraqalpoq adabiy aloqalarining muhim tarkibiy qismi bo'lgan badiiy tarjimaning nazariy va amaliy jihatlarini yoritishga, maqollar tarjimasining o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashga xizmat qiluvchi ilmiy xulosalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari. Haqiqatan ham, maqol va matallar nutqning ixchamligi, ta'sirchanligi hamda mazmuniy teranligini ta'minlovchi muhim lingvopoetik vositalardan hisoblanadi. Ular qisqa shaklda keng va umumlashgan ma'no ifodalash imkoniyatiga ega bo'lib, xalqning hayotiy tajribasi hamda asrlar davomida shakllangan donishmandlik xulosalarini o'zida mujassamlashtiradi. Shu bois maqollar badiiy matnning estetik ta'sir kuchini oshirish, obrazlilik va emotsional-ekspressivlikni ta'minlashda muhim funksional vazifa bajaradi. Maqol va matallarning semantik tabiati, avvalo, ularning ko'chma ma'no asosida shakllanishida namoyon bo'ladi. Bunday birliklar xalq tafakkurining obrazli, ramziy va assotsiativ xususiyatlarini aks ettirib, muayyan millatning dunyoni idrok etish usuli haqida muhim tasavvur beradi. Har bir xalq maqollarida uning turmush tarzi, tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy munosabatlari, axloqiy qadriyatlari, urf-odatlar va estetik ideallari o'z ifodasini topadi. Shu jihatdan maqol va matallar milliy mentalitetni o'rganishda muhim etnomadaniy manba sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi. Xalq og'zaki ijodining mazkur ixcham janrlari uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida xalq tajribasi va tafakkuri asosida sayqallanib, avloddan-avlodga o'tib kelgan. Natijada ular nafaqat nutqning bezagi, balki milliy xarakter, xalq ruhiyati va ma'naviy qadriyatlarini ifodalovchi muhim badiiy-estetik birlik darajasiga ko'tarilgan. Shu sababli badiiy tarjimada maqol va matallarni adekvat talqin qilish masalasi milliy koloritni saqlash va asarning badiiy qimmatini to'laqonli yetkazish nuqtayi nazaridan alohida ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

"Maqol va matallar xalq aql-idrokining mahsuli, uning hukmi, ko'p asrlik tajribalari, turmushdagi turli hodisa-voqealarga munosabati demakdir. Maqol kundalik hayotda, kishilarning bir-birlariga munosabatida yaratiladi. Xalq maqoli - xalqning mulkidir. Maqol qayg'usi - xalq qayg'usi, maqol g'azabi - xalq g'azabi, maqol kulgusi - xalq kulgusi va maqol kinoyasi - xalq kinoyasi demakdir. Maqol yaratmagan bironta til, maqol ishlatmagan bironta xalq yo'q".

Biroq maqol, matal va frazeologik birliklarni faqat muayyan bir til doirasida emas, balki boshqa tillardagi muqobil birliklar bilan qiyosiy aspektida o'rganish masalaning ilmiy-nazariy ahamiyatini yanada kengaytiradi. Chunki har bir xalq borliqni anglash, voqelikni baholash va inson ruhiy holatini tasvirlashda o'ziga xos milliy tafakkur modeliga ega bo'lib, ushbu model tilning frazeologik qatlamida yaqqol namoyon bo'ladi. Xususan, maqol, matal va iboralar xalqning tarixiy tajribasi, turmush tarzi, qadriyatlari hamda etnomadaniy qarashlarini aks ettiruvchi muhim til birliklari sifatida e'tirof etiladi. Masalan, o'zbek tilidagi "hafsalasi pir bo'lmoq", "ko'ngli qolmoq", "yuragi achimoq" kabi frazeologik birliklar insonning ruhiy kechinmalari va hissiy holatini obrazli tarzda ifodalashga xizmat qiladi. Boshqa xalqlar tillarida ham mazmun jihatidan yaqin bo'lgan birliklar uchrashi mumkin, biroq ular milliy tafakkur, madaniy tajriba va lingvomadaniy xususiyatlarga ko'ra turlicha shakllanadi. Shu sababli bunday birliklarning qiyosiy tahlili turli xalqlarning dunyoqarashi va badiiy tafakkuridagi umumiylik hamda o'ziga xos jihatlarni aniqlash imkonini beradi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, maqol va matallarni milliy identitet kontekstida o'rganish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Bunday tadqiqotlar nafaqat turli xalqlarning milliy-estetik qarashlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi, balki til, tafakkur va madaniyat o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ham yoritib beradi. Ayniqsa, maqollarning obrazli tabiati va ko'chma ma'no asosida shakllanishi ularda xalqning tarixiy xotirasi, mentaliteti hamda ma'naviy qadriyatlari mujassamlashganligini ko'rsatadi.

Badiiy tarjima jarayonida esa maqol va matallarni boshqa tilga adekvat tarzda o'girish tarjimon oldida turgan eng murakkab vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki bunday birliklar tarkibida faqat lug'aviy ma'no emas, balki milliy ruh, etnomadaniy mazmun, tarixiy tajriba va xalqona tafakkur unsurlari ham mujassam bo'ladi. Shu sababli ularni so'zma-so'z tarjima qilish ko'pincha asl matndagi obrazlilik, emotsional-ekspressiv ta'sir hamda milliy koloritning yo'qolishiga olib keladi. Tarjimon esa bunday hollarda nafaqat mazmuniy muqobillikni, balki asarning badiiy-estetik mohiyati va milliy xususiyatlarini ham imkon qadar saqlab qolishga intiladi. Zero, "Tilning asl qaymog'i, uning o'ziga xos xususiyatlarini va tabiatini belgilaydigan, uning kamolot darajasi qanday ekanligini ko'rsatadigan, boshqa tillar o'rtasida tutgan o'rnini tayinlashda muhim omil bo'lgan narsa undagi maqol, matal, idioma va boshqa shu kabi ko'chma ma'noli birikmalardir. Bunday birikmalarni bir tildan boshqa tilga tarjima qilishning g'oyat murakkab va muhim ish ekanligi bu masalani badiiy tarjima nazariyasining asosiy muammolari qatoriga kiritishga sabab bo'lmoqda".

Tarjimashunoslik nazariyasida maqol va matallar tarjimasi eng murakkab muammolardan biri sifatida qaraladi. Chunki tarjima jarayonida faqat semantik mazmuni emas, balki obrazlilikni, uslubiy bo'yoqdorlikni, milliy ruhni va madaniy konnotatsiyalarni ham saqlab qolish talab etiladi. Ayniqsa, qoraqalpoq tilidan o'zbek tiliga amalga oshirilgan badiiy tarjimalarda maqollarning milliylikni aks ettirishdagi o'rnini alohida

ahamiyatga ega. Bu jihat qoraqalpoq yozuvchisi Kengesboy Karimovning “Og‘abiy” romani tarjimasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Asarda qo‘llangan maqollar qoraqalpoq xalqining turmush tarzi, urf-odatlarini, dunyoqarashi va milliy mentalitetini ifodalovchi muhim lingvopoetik vosita vazifasini bajaradi. Tarjimon ushbu birliklarni o‘zbek tiliga o‘girish jarayonida nafaqat matnning mazmuniy qatlamini, balki asarning milliy-estetik ruhini ham qayta yaratishga intilgan. Shu bois mazkur tadqiqotda “Og‘abiy” romani tarjimasida maqollarning milliylikni ifodalashdagi o‘rni, ularning lingvopoetik xususiyatlari, tarjimada muqobilikni ta‘minlash usullari hamda milliy koloritni saqlashdagi funksional ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Mazkur masalalarning o‘rganilishi o‘zbek va qoraqalpoq tarjimashunosligida maqol va matallar tarjimasining nazariy asoslarini boyitishga, shuningdek, milliy madaniyat va badiiy tafakkur xususiyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

“Og‘abiy” romani tarjimasida maqollarning qo‘llanish xususiyatlari kuzatilganda, ularni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

- 1) Butun turkiy xalqlarga xos maqollar;
- 2) Faqat qoraqalpoq xalqining milliy turmushi, tafakkuri va etnomadaniy tajribasi bilan bog‘liq maqollar.

Ushbu tasnif tarjima jarayonida milliylikni ifodalashning ham to‘g‘ridan to‘g‘ri tarjima usuli orqali ham turkiy xalqlarning mushtarak madaniyatlaridan foydalanib tarjima tilidagi muqobilini berish usullari orqali amalga oshirilganini ko‘rsatadi. Ayniqsa, turkiy xalqlarga umumiy bo‘lgan maqollar tarjimada semantik va obrazli jihatdan deyarli qiyinchiliksiz o‘giriladi. Chunki bunday birliklarning mazmuniy asosi, xalqona tafakkur shakli hamda madaniy ildizlari o‘zaro yaqin bo‘lib, ular turkiy xalqlarning tarixiy-madaniy mushtarakligi mahsuli sifatida shakllangan.

K. Karimovning “Og‘abiy” romani tarjimasida ham ana shunday maqollar ko‘plab uchraydi. Jumladan, asardagi: *“Qolga túspegen uri emes”, “Gúman iymannan ayiradi”, “Qashqan da alla deydi, quw‘gan da alla deydi”* kabi maqollar tarjimon tomonidan o‘zbek tilidagi tabiiy muqobillari bilan berilgan. Tarjimada ushbu birliklar *“Qo‘lga tushmagan o‘g‘ri – o‘g‘ri emas”, “Gumon iymondan ayiradi”, “Qochgan ham Xudo deydi, quvgan ham”* shaklida ifodalanadi. Bu yerda tarjimon asliyatdagi xalqona ruh, hikmatli mazmun hamda hissiy ta‘sirchanlikni to‘liq saqlab qolishga muvaffaq bo‘lgan:

Mazkur maqollarning semantik strukturasi e‘tibor qaratisa, ular xalq hayotiy tajribasi asosida shakllangan umumlashma hukm sifatida namoyon bo‘ladi. Xususan, *“Qo‘lga tushmagan o‘g‘ri - o‘g‘ri emas”* maqoli aybni isbotlash zarurati va shoshqaloqlik bilan hukm chiqarishning noo‘rinligini ifodalasa, *“Gumon iymondan ayiradi”* maqoli insoniy munosabatlardagi ishonch va axloqiy mezonlarni aks ettiradi. *“Qochgan ham Xudo deydi, quvgan ham”* maqolida esa murakkab hayotiy vaziyatda har ikki tomonning ham ilohiy madadga umid bog‘lashi xalqona falsafiy mushohada tarzida ifodalangan.

Tarjimon ushbu maqollarni o‘zbek tilidagi tayyor muqobillar orqali berish bilan matnning nafaqat ma’nosini, balki uning milliy-estetik ruhini ham saqlab qolgan.

Asarda qo‘llangan boshqa bir maqol ham tarjimon mahoratini yaqqol namoyon etadi: “*Qorqqan dáslep qol jumsaydı*” maqoli o‘zbek tiliga “*Qo‘rqqqan birinchi bo‘lib musht ko‘taradi*” tarzida tarjima qilingan. Ushbu maqolda inson ruhiyatining psixologik holati xalqona kuzatuv asosida ifodalangan bo‘lib, qo‘rquv hissi himoyalanih instinktini kuchaytirishi obrazli tarzda tasvirlanadi. Tarjimada maqolning mazmuni to‘liq saqlangan holda, o‘zbek tilining tabiiy nutq me‘yorlariga mos ekvivalent tanlangan.

Shuningdek, “Og‘abiy” romani tarjimasida qo‘llangan maqollar orasida oilaviy munosabatlar, sabr-toqat va hayotiy falsafani ifodalovchi xalqona hikmatlar alohida o‘rin egallaydi. Bunday maqollar asar qahramonlarining ruhiy kechinmalarini ochishda, milliy muhitni yaratishda hamda matnning emotsional ta’sirchanligini kuchaytirishda muhim poetik vosita sifatida xizmat qiladi. Tarjimon ushbu birliklarni o‘zbek tiliga o‘girishda ularning nafaqat mazmuniy mohiyatini, balki xalqona ruhi va uslubiy tabiiyligini ham saqlab qolishga intilgan.

Jumladan, asardagi “*Ákesiz jetim zor jetim, anasiz jetim xor jetim*” maqoli tarjimada “*Otasiz yetim zor yetim, onasiz yetim xor yetim*” shaklida berilgan. Ushbu maqol turkiy xalqlar folklor tafakkurida keng tarqalgan bo‘lib, unda ota va ona timsolining farzand hayotidagi ma’naviy-ruhiy ahamiyati xalqona falsafa asosida ifodalangan. Maqolda “zor” va “xor” so‘zlari orqali yetimlikning ikki xil ruhiy darajasi qiyosiy tarzda ochib beriladi. Ya’ni otasizlik moddiy va ijtimoiy tayanchning yo‘qligi bilan bog‘lansa, onasizlik mehr-muhabbat, ruhiy taskin va ma’naviy panohning yo‘qolishi sifatida talqin qilinadi.

Xulosa. Maqollar tarjimasining murakkab jihatlari ham kuzatildi. Ayrim maqollarning o‘zbek tilida to‘liq ekvivalenti mavjud emasligi sababli tarjimada ba’zan badiiy-estetik bo‘yoqning susayishi yoki ma’lum darajada sun’iylik yuzaga kelgani aniqlandi. Ayniqsa, qoraqalpoq xalqining milliy tafakkuri va folklor obrazlariga tayangan ayrim birliklar o‘zbek tilida aynan bir xil assotsiativ ma’no uyg‘ota olmagan. Biroq tarjimonning asosiy yutug‘i shundaki, u asliyatdagi xalqona tafakkur va milliy-estetik ruhni imkon qadar saqlab qolishga intilgan.

Umuman olganda, “Og‘abiy” romani tarjimasida misolida maqollar badiiy tarjimada milliylikni ifodalovchi eng muhim lingvopoetik vositalardan biri ekanligi o‘z tasdig‘ini topdi. Ular orqali qoraqalpoq xalqining tarixiy xotirasi, turmush tarzi, ruhiyati va estetik tafakkuri o‘zbek kitobxoniga yetkazilgan. Shu jihatdan maqollar tarjimasida oddiy lingvistik hodisa emas, balki ikki xalqning madaniyati, tafakkuri va badiiy-estetik dunyosini bir-biriga yaqinlashtiruvchi murakkab ijodiy jarayon sifatida muhim ilmiy-nazariy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdullayev X. O‘zbek-qoraqalpoq adabiy aloqalari. Darslik. Toshkent.: 2024
2. Mambetov K. O‘zbek h m qoraqalpoq adabiy baylanislari. N kis, 1993.
3. Kenesboy Karimov. Og‘abiy. Roman. Toshkent.: 2020.

4. Kurambayeva G. O‘zbek va qoraqalpoq adabiy aloqalari (adabiy aloqa, o‘zaro ta’sir va badiiy tarjima). Filol.fan.dok. disser. - Nukus, 2023.
5. Саломов Ғ. Рус тилидан ўзбекчага мақол, матал ва идиомаларни таржима қилиш масаласига доир. – Тошкент: Ўзбекистон ССР Фанлар академияси нашриёти, 1961
6. Salomov G‘ va boshqalar. “Tarjima mahorati”. T; Fan nashriyoti, 1979.
7. Quramboev K. Tarjima va tarjimon mas’uliyati. –T.: «Cho‘lpon», 2007.

